OGAHIYSHUNOSLIK

G‘ayipov Dilshod Qadambayevich (filologiya fanlari doktori, UrDU professori)

OGAHIY SHOHBAYTLARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ulug‘ shoir, tarixchi, tarjimon Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning shohbaytlari tahlilga tortiladi. Shuningdek, shoir g‘azallaridagi ayrim shohbaytlarning mavzu doirasi, g‘oyaviy yo‘nalishi, badiiy xususiyatlari muxtasar tadqiq etiladi. Shohbaytlarda shoirning badiiy mahorati ham namoyon bo‘lganligiga diqqat qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ogahiy, g‘azal, shohbayt, mavzu, g‘oya, badiiyat, mahorat, o‘ziga xoslik, ifoda.*

ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ШАХБЕЙТОВ АГАХИ

Аннотация. *В данной статье анализируются избранные бейты великого поэта, историка, переводчика Мухаммада Ризо Эрниязбека оглы Огахи. Также кратко исследуются тематика, идейная направленность и художественные особенности некоторых избранных бейтов из газелей поэта. Акцентируется внимание на том, что в избранных бейтах также проявилось художественное мастерство поэта.*

Ключевые слова: *Огахи, газель, избранный бейт, тема, идея, художественность, мастерство, своеобразие, выражение.*

THE IDEOLOGICAL AND ARTISTIC CHARACTERISTICS OF OGAHI'S SHAHBAYTS

Annotation. *This article analyzes the poetic verses of the great poet, historian, and translator Muhammad Riza Erniyozbek oglu Ogahi. Also, the subject matter, ideological direction, and artistic features of some poetic verses in the poet's ghazals are briefly studied. Attention is paid to the fact that the poet's artistic skill is also manifested in the poetic verses.*

Keywords: *Ogahi, ghazal, poetic verse, theme, idea, artistry, skill, originality, expression.*

Taniqli adabiyotshunos Ibrohim Haqqul mumtoz she’rshunoslik xususida so‘z yuritarkan, shunday yozgan edi: “Eski she’rshunoslikda o‘ziga xos tugal bir ma’noni ifodalagan va ikkinchi bir misraga tobelikdan qutulgan toq misra “ozoda” deb atalgan. G‘azalning go‘zal baytiga “Baytul g‘azal”, mutlaq suratda eng go‘zal baytiga esa “Shohbayt” deyilgan” [1;5-b.]. Darhaqiqat, shohbayt g‘azalning eng go‘zal, purma’no baytidir. Bu kabi baytlar iste’dodli ijodkorlar she’riyatida juda ko‘pchilikni tashkil qiladi.Shu jumladan, o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874) ijodida ham bunday baytlar talaygina. Shohbaytlar shoir ijodining ko‘zgusi, yorqin iste’dodining hosilasidir.

Ogahiy shohbaytlari “Ta’viz ul-oshiqin” devonidagi she’riy janr va shakllarda, shuningdek, tarixiy asarlarida ham talaygina. Aslida Ogahiy ijodini noyob durdonalar xazinasiga qiyos etish o‘rinli. Ana shu durdonalar ichida ham alohida ajralib turadiganlari borki, bularni javohirlar deyish mumkin. Javohirlar, ta’bir joiz bo‘lsa, shohbaytlardir. Biz Ogahiy shohbaytlari xususida fikr yuritarkanmiz, bu o‘rinda g‘azalda begona bayt bo‘lib keladigan shohbaytlar tahliliga e’tibor qaratdik. Yetuk bade’shunos Y.Is’hoqov hazrat Alisher Navoiy g‘azallaridagi shohbaytlar xususida shunday yozgan edi: “Navoiy g‘azallarida shohbayt ko‘pincha she’rlarning oxirrog‘ida, asosan, maqta’dan oldingi bayt sifatida keladi. Falsafiy xulosa shaklida bunday baytlar salmoqli ijtimoiy-axloqiy pafosi hamda uslubiy tugalligi bilan boshqa baytlardan ma’lum darajada ajralib turadi. Ular alohida holda ham muhim bir fikrni tugal ifodalaydi” [2; 262-b.]. Ogahiy shohbaytlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Y.Is’hoqovning Navoiy shohbaytlari haqidagi fikrlarini bemalol Ogahiyning ham shunday baytlari xususida ishlatish mumkin. Bu borada ham Ogahiy Navoiy dahosidan ta’sirlangan.

Ogahiy nafaqat ulug‘ shoir, balki tengsiz faylasuf, beqiyos donishmand ham edi. U Olam va Odam haqiqatlarini anglab yetish bilan birga, o‘zi ham bu borada haqiqatlar yarata oldi. Insoniylik tamoyillariga yangi-yangi tamoyillar qo‘shdi. Bu bilan inson zotini mukammal ko‘rishni istadi. Uning axloqini yana ham go‘zal bo‘lishini orzuladi. Azaliy va abadiy qoidalar qatoriga yangi me’yorlar qo‘shishga intildi. Shoir shunday yozadi:

Sultondur ul gadoki buzuq kulbasi aro,
Osudadur topilsa biror pora non anga. [3; 32-b.]

Bu o‘rinda Ogahiy inson xotirjamligini, qalb halovatini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Aslida, haqiqiy insonlikning ilk talabi ham shunday. Ogahiy buzuq kulbasida bir parcha nonini osuda yegan gadoni sultonga, shohga tenglashtiradi. Dahr podshoshligida doimiy g‘ussa ko‘radi. Bu bilan insoniyatni to‘g‘ri va halol yashashga da’vat etadi.

Shoir boshqa bir g‘azalida olam shohligi xususida ham fikr yuritadi. Umuman, odil shoh mavzusi Ogahiy ijodining asosiy mavzularidan hisoblanadi. Ogahiy biz tahlilga tortgan baytda ham xalqparvar, raiyatparvar sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqning jabr-zulm ostida qolishini istamaydi. Yurtning farovon bo‘lishini asosiy vazifalardan biri sifatida qalamga oladi:

Lutf etib olg‘in xabar, ey shoh, raoyo holidin,
Qolmasunlar to jafo-u javr ummol ostida. [3; 42-b.]

Ogahiy – yuksak tafakkur egasi. U odam naslini ilm bilan bezangan bo‘lishini istaydi. Odamlikning ham asosiy shartlaridan biri ilm-u donish sohibi bo‘lishda deb biladi. U ma’shuqaning go‘zalligi madh etilgan g‘azalda shunday shohbaytni keltiradi:

Odamidur ilm-u donish birla odam, yo‘q esa
Jumlai hayvong‘adur yakson qad-u ruxsor-u lab. [3; 65-b.]

Shoir uqtirishicha, inson ilmi bilan sharafli. Agar unda ilm-u donish bo‘lmasa, jumlai hayvon uni jismini, qad-u ruxsor-u labini yakson aylaydi, deydi Ogahiy. Darhaqiqat, shoirning bu fikrlari barcha zamonlar uchun asosiy mezon. Qit’alararo chegara bilmaydi, millatlararo sarhad tanlamaydi. Insoniyatni yuksaklikka chorlayveradi.

Ogahiy shohbaytlarida qanoat haqida, qone’ bo‘lish xususida yozar ekan, buni ham insoniylik shartlaridan biri deb biladi. Shoir bu borada ham haq edi. Chunki odamni tubanlik botqog‘iga yetaklaydigan ham tama’. Davlatlarni, millatlarni, urush yoqasiga olib borgan va borayotgan illatlardan ham biri qanoatsizlikdir. Shoir o‘z davrida buni komil insonlik sharti sifatida qalamga olgan bo‘lsa, bu mezon hozir ham o‘z kuchida qolmoqda. Ogahiy yozadi:

Ko‘ngul gar istasang izzat na maqsum o‘lsa qone’ bo‘l –
Ki, olam ahli ichra xor o‘lur har kim esa tome’? [3;169-b.]

Mumtoz adabiyotimizda xil’at, libos mavzusida juda go‘zal g‘azallar bitilgan. Bu borada hazrat Alisher Navoiyning g‘azallari alohida ajralib turadi. Shoirning “Qizil, sorig‘, yashil” radifli g‘azali bu mavzudagi shoh asarlardandir. Ogahiy ham “Libos” radifli g‘azal yozgan. Bu g‘azal ham ma’shuqaning uydan go‘zal libos kiyib chiqqani bilan boshlanadi:

Chiqti ul siymin badan uydin kiyib ahzar libos,
Atlasi gardundin etkondek mahi anvar libos. [3;146-b.]

Navoiy g‘azali esa quyidagicha ibtido topadi:

Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil,
Shu’layi ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil.

Bu baytni taniqli shoir, tarjimon, adabiyotshunos Jamol Kamol shunday tahlil qiladi: “Jononim qizil, sorig‘, yashil rangli to‘n kiymish, shundan beri yurakdan chiqadigan ohim shu’lalari ham qizil, sorig‘, yashil tusdadir… Xo‘sh, shoir bunda faqat odamni ko‘zda tutmoqdami? Olamni ham ko‘zda tutmayaptimi? Xudoni-chi? Biz bugun shunday deb ayru-ayru savol qo‘yamiz. Lekin bu tushunchalarni Navoiy bir-biridan ayirmagan, uning falsafasi ularni bir butunlikda jamlagan, “vohid” deb baholagan” [4;138-b.]. Darhaqiqat, bu g‘azal shoirning olamga, Allohga qaratilgan ichki kechinmalari ifodasidir. Agar ushbu g‘azalning shohbaytiga, begona baytiga e’tibor qaratilsa, unda ham shoirning falsafiy ruhdagi, tasavvufiy mazmundagi fikrlari keltiriladi. “Faqirlik, – deb yozadi Jamol Kamol, ishq ahlining sharafidir. Faqirlikda befarq yashash – olam haqiqatidan yiroq tushish mushkul, aksincha, darveshlar to‘niga qizil, sorig‘, yashil yamoqlar tushishi tabiiy, ya’ni darveshlik to‘nini kiyib, olamning rang-barang haqiqatini idrok etish o‘ng‘ay:

Farq aro beranglik dushvor erur behad valek,
Hirqada tikmak erur oson qizil, sorig‘, yashil”. [4;139-b.]

Ogahiyning “Libos” radifli g‘azalining begona baytida, shohbaytida esa shoir ko‘ngilga murojaat etadi. Unga eski choponga qanoat qilishni uqtiradi. Shu o‘rinda bir jihatga e’tibor qaratish zarur. Shoir o‘tlug‘ ko‘ngul, deb murojaat qiladi. Bu ham behuda emas. Sababi, shoir keyingi misrada cho‘g‘ timsolini keltiradi. Chog‘ o‘ziga kulni libos qilgan. Kul bu o‘rinda ko‘rimsizlik vositasi. U ko‘rimsiz bo‘lgani bilan ichida cho‘g‘ bor. Cho‘g‘ kerak bo‘lsa, olamga o‘t qo‘yishi mumkin. Zarur bo‘lsa, uning vositasida ovqat tayyorlanib, odamlar qorni oshga to‘yishi mumkin. Shunindek, kulga burkangan cho‘g‘ – qalbi ma’nan to‘lgan, biroq kiyimi odmi darvesh timsoli. Agar Navoiy va Ogahiy baytlari ildiziga nazar tashlansa, ular orasida ham yaqinlik bor. Bemalol aytish mumkinki, ikkala bayt ham darvesh va uning hirqasi haqidadir. Ogahiy bayti quyidagicha:

Kelgil, ey o‘tlug‘ ko‘ngul, eski chopong‘a qone’ o‘l,
Kim hamisha jismig‘a kuldin qilur axgar libos. [3;146-b.]

Ogahiy libos, kiyim haqidagi fikrlarini "Shart" radifli g'azalida ham davom ettiradi. Oldingi g'azaldagi fikrlarini yana ham rivojlantiradi. Zohidga murojaat etar ekan, agar solik bo'lsang, tariqatga qadam qo'ygan bo'lsang, fano, ya'ni yo'qlik, Alloh bilan birlashish sholini (bo'zdan tikilgan mato) kiy, deydi. Shoir solikka bu yo'lda bo'lar-bo'lmas narsalarga chalg'imaslikni, faqat Alloh ishqi bilan yonishni tavsiya qiladi.Ogahiy shunday o'xshatish keltiradiki, uning mahoratiga tahsin o'qiysiz. Shoir Ka'ba ziyoratida ehrom kiyish shart bo'lganidek, zohid ham solik bo'ladigan bo'lsa, fano sholini kiyishi lozimligini badiiy bo'yoqlarda tasvirlaydi:

Gar solik ersang, zohido, kiygil fano sholinikim,
Qilg'ang'a Ka'ba azmini bor jomai ihrom shart. [3;164-b.]

Ogahiy fano, foniylik haqidagi fikrlarini boshqa bir shohbaytida ham davom qildiradi:

Fano bahrig'a kirgil gar tilarsan gavhari maqsud –
Ki, g'avvos o'lmag'an odamg'a ochmas ushbu gavhar yuz. [3;129-b.]

Mazkur baytda asosiy uch tushunchaga diqqat qaratish lozim. Birinchisi, fano bahri. Bu yo'qlik, ya'ni vahdati vujud. Ikkinchisi, gavhari maqsud, ya'ni maqsad gavhari. Bu esa Alloh bilan birlashish. Uchinchisi, fano g'avvosi, ya'ni haqiqiy solik. Shariat-u tariqat-u ma'rifatning to'la amallarini bajargan, haqiqat yo'lida mashaqqatlarga bardosh berayotgan so'fiy. Ana shu amallarni bajargan solikka gavhari maqsud yuz ochadi. Solik murodiga yetadi.

Ogahiy boshqa bir shohbaytida xudbinlik, hasadgo'ylik xususida so'z yuritadi. Bunday tabiatli kishilarni shaytonga tenglashtiradi. Xudbin, hasadgo'y kimsalar ham odam naslidan emasligiga ishora qiladi:

Hosid-u xudbing'a tong yo'q nopisand o'lsa so'zim –
Kim, qachon odam so'zini aylagay shayton pisand. [3;95-b.]

Xullas, Ogahiy shohbaytlaridan biron-bir mavzu chetda qolgan emas. Ularda insonlikning sharafi, shartlari, oshiqlikning talabi, so'fiy bo'lmoqlikdan maqsad, faqirlikdan murod qalamga olinadi. Bu shohbaytlar orqali Ogahiy ulug' donishmand, faylasuf, xokisor mutasavvuf, mahoratli shoir sifatida namoyon bo'ladi. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, shohbayt bu – shoirlikning mahak toshi. Chinakam shoirning mahorati, o'ziga xosligi, yangi fikr aytish iste'dodi shohbaytlar orqali ko'zga tashlanadi. Ogahiy esa betakror shohbaytlar yaratgan iste'dodli ijodkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Alisher Navoiy. Shohbaytlar. Haqqul I. Shohbayt – eng porloq bayt. Toshkent, "Tamaddun", 2016.
(2). Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. Toshkent, "O'zbekiston", NMIU, 2014.
(3). Ogahiy. Taviz ul-oshiqin. Toshkent, "Mumtoz so'z", 2014.
(4). Alisher Navoiy. G 'azallar. Sharhlar. Jamol Kamol. "Qizil, sorig', yashil…". Toshkent, "Kamalak", 1991.